

SOVETLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'ZBEKISTONDA MILLIY MAKTABLAR VA ULARNING FAOLIYATI

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM

jumayevashaxlo507@gmail.com .Tel: +998906165608

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining mustamlakachilik faoliyati natijasida o'lkada mavjud bo'lgan madrasa va mahalliy diniy maktablar faoliyatini cheklab, ular ustidan doimiy nazorat yuritish siyosatini olib bordi. Bunday siyosat uzoq yillar davomida mamlakatimizda maorif sohasining rivojlanishida to'siq bo'lib kelganligi tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar :** eski usul, madrasa, ma'naviy uyg'onish, qadriyatlar, ma'rifat, diniy erkinlik, madaniy tiklanish, tarbiya.*

***Аннотация .** В этой статье в результате колониальной деятельности Российской империи деятельность медресе и местных религиозных школ в стране и провел над ними политику постоянного контроля. Анализируется, что такая политика на протяжении многих лет является препятствием для развития сферы образования в нашей стране.*

***Ключевые слова:** старый уклад, медресе, духовное пробуждение, ценности, просвещение, религиозная свобода, культурное возрождение, образование.*

***Abstract.** In this article, as a result of the colonial activities of the Russian Empire, the activities of madrassas and local religious schools in the country and carried out a policy of constant control over them. It is analyzed that such a policy has been an obstacle to the development of the education sector in our country for many years.*

***Keywords:** old way of life, madrassas, spiritual awakening, values, enlightenment, religious freedom, cultural revival, education.*

Yurtimiz azal-azaldan ilm o'chog'i, jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri deb e'tirof etib kelingan. O'rta asrlardan, xalqimiz ta'lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo'lib, jahon sivilizatsiyasi hamda fan sohasiga ulkan hissa qo'shishgan. Misol tariqasida, IX-XII asrlarda Movarounnahrda ko'plab o'quv maskanlari bo'lib, ulardan chinakam olimlar, ulamolar yetishib chiqqan va ular jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan.

Sobiq sho'rolar davridagi ta'lim tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, u davrlarda hatto O'zbekistonning o'zining milliy ta'lim tizimi joriy etilmagani ayanchli holatdir. Asosan ta'lim tizimi sobiq markazning hukmron mafkura manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Aytaylik, aksariyat fanlar o'quv dasturiga kiritilmagan. Birgina O'zbekiston tarixi fanini oladigan bo'lsak, ushbu fan xolis o'rganilmas, o'quv dasturida bu fanga ajratilgan soatlarning katta qismi sobiq ittifoq tarixini o'rganishga bag'ishlanar edi. O'quvchilar ongi Vatanimiz tarixining noto'g'ri talqin qilingan hodisalari bilan to'ldirililar edi. Milliy qadriyat va ma'naviyat toptalar, asl o'zbek olimlarini va buyuk davlat arboblari, sarkardalari hayot va ijod yo'llari qoralangan. Bunga misol Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon va hokazolarni keltirish mumkin.

XX asrning 20-yillari boshlarida O'zbekistonda sovet, eski usul maktablari, masjid va madrasalar hamda qorixonalar faoliyat olib bordi. O'zbekistondagi eski maktab va madrasalarni sovetlashtirish va ularni tugatish haqidagi masala 1921 yil 17 mayda Turkiston Maorif xalq komissarligi hay'ati yig'ilishida muhokama qilindi. Unda "eski usuldagi maktablarning mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi" tan olinib, "maktab yoshidagi bolalarning sovet maktablari bilan ta'minlanishiga qarab ularni yopib qo'yish choralarini ko'rish"ga qaror qilindi.

Sovet amaldorlari xalq maorifini rivojlantirish ishini, asosan, eski maktablarni tugatish va Bosh vaqf boshqarmasi ixtiyoridagi barcha maktablarni yagona sovet maktabiga qo'shib yuborish bilan uyg'un holda ko'rdilar. Vaqf

boshqarmasi maktablari 1922 yilda tashkil etilgandi. Bu maktablarda arif-metika, geografiya va ona tili bilan bir qatorda diniy axloq darslari ham o'qitilardi. Bunday maktablar, sovetlar g'oyasi bo'yicha, eski maktabdan sovet maktabiga o'tishning bir shakli edi. [1, 128].

Eski maktablar faoliyatini cheklash va ularni sovet maktablariga aylantirish maqsadida hukumat tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Maorif xalq komissarligining Turkiston MIQning uchinchi chaqiriq II sessiyasida bergan hisoboti-da eski maktablarning sovetlashtirilishi masalasi ikki bosqichda amalga oshirilgani qayd etildi. Birinchi bosqich 1923 yilning sentyabridan 1924 yil aprelegacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu davrda eski maktablar dasturlari bilan bir qatorda yagona mehnat maktabi dasturiga o'tilganligi ta'kidlangan. Ikkinchi bosqichda esa to'laligicha yagona mehnat maktabi dasturiga amal qilina boshlandi, ya'ni 1924 yil apreldan boshlab bu muassasalar to'laligicha sovetlashtirildi va diniy fanlar butunlay siqib chiqarila boshlandi.

Mahalliy organlar va xalq ta'limi organlari yangi usuldagi maktablarni sovet maktablariga aylantirishga qaror qildilar. Ammo Turkiston ASSR MIQning vaqf to'g'risidagi dekreti bekor qilinmadi. Mahalliy organlarning taqiqlashlariga qaramay, madrasa va maktablar eski dastur asosida faoliyat yuritaverdilar, lekin ularning faoliyati tobora cheklanib bordi. 1922 yil 28 dekabrda dekretga asosan ular vaqf bo'limlari tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsada, 1924 yilning o'rtalariga kelib mahalliy organlar qaroriga ko'ra moliyalash ishlari to'xtatib qo'yildi.

Bosh vaqf boshqarmasining 1924 yil 20 avgustdagi hisobotida esa shunday deb ta'kidlangan: "1924 yil 1 apreldan boshlab yangi usuldagi maktablar birinchi bosqich yagona mehnat maktabi dasturiga o'tdilar, madrasalar ikkinchi bosqich maktablari hisoblanadi. Shunday qilib, Bosh vaqf boshqarmasi ixtiyorida diniy va yangi usuldagi maktablar mutlaqo qolmadi".

Boshqarma yangi usuldagi maktablarning sovetlashtirilishi-ga alohida ahamiyat berdi. Jumladan, 1924 yil vaqf idoralari tomonidan hisobga olingan 212 madrasa va 191 maktab-dan 738 talabasi bo'lgan 10 madrasa, 3080 o'quvchisi

bo'lgan 41 maktab sovetlashtirildi.

O'zbekiston SSR Maorif xalq komissari Rahim Oxunjonovich Inog'omov 1925 yil oktyabr oyida o'tkazilgan Markaziy Qo'mi-taning yalpi majlidida eski maktablar faoliyati xususida ma'ruza qildi. R.Inog'omov bu maktablarga qarshi hukumat tomonidan har qanday tazyiq, ta'qiblar amalga oshirilishiga qaramay, ularning soni ko'pligini hamda ularning sovet maktablariga nisbatan nufuzi balandligini ochiqdan-ochiq tan oldi. Xalq komissari ularning faoliyatiga, jumladan, quyidagicha salbiy baho bergandi: "Eski usul maktablari haqiqatda sho'ro hokimi-yatiga qarshi ish ko'radurg'on muassasalardir. Bular qishloq yoshlari orasida bizning tuzilishimizga qarshi bo'lgan o'zlarining urug'larini sochadi". [2, 246];

Majlis yakunida R.Inog'omov eski maktablarni sovet maktab-lariga to'laligicha aylantirish taklifini beradi. Jumladan: "Bizda eski asos saqlanur - isloh qilish asosi eski maktab-larga sho'ro maktabi ruhi kirgizish va eski maktablarni sho'ro-lashtirish", - degan fikrlarni bildiradi, biroq sovet hukumatining bunday siyosati kutilgan natijani bermaydi. XX asr-ning 20-yillari ikkinchi yarmida SSSRda ateistik harakat avj olib, u davlat siyosatining uzviy bo'lagiga aylandi. Ushbu siyosat yuzasidan joylarda ko'plab "Xudosizlar jamiyati" tuzildi. Ana shunday jamiyat 1923 yilda Andijonda ham maydonga kelgandi. Ushbu jamiyatlar diniy tasavvurlarga, uning peshvola-riga qarshi kurash olib bordi, uning joylardagi tashkilotlari zo'r berib ateistik faoliyat ko'rsatdi. Ateizmga doir maxsus gazeta va jurnallar nashr qilindi. Mazkur yillar davomida sovet hukumati tomonidan o'zbek xalqining olis asrlarga borib taqaluvchi moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari, maktab, madrasalarga qarshi zo'rlik yo'li bilan kurash olib borildi. Islom dini va musulmon ruhoniylari kamsitilib, eski usuldagi maktablar "eskilik va xurofot uyasi" sifatida ta'riflandi.

O'zbekiston SSR KPning 1925 yil noyabrda bo'lib o'tgan II s'ezdida sovet maktablari sonini ko'paytirish, maktab yoshidagi bolalarni sovet maktablariga jalb etish, mahalliy millat vakillarining diniy va xususiy maktablar ochish uchun harakat qilishlariga yo'l qo'ymaslik lozimligi ta'kidlandi. Birgina

1925 - 1926 yillarda O'zbekistonda 100 ga yaqin vaqf maktab» lari, 250 tasi yashirin holda ishlaydigan 1600 dan ortiq eski maktablar bor edi. Bu esa, o'z navbatida, mavjud tuzum ma'naviy qiyofasi hamda mafkurasiga mos tushmasdi.

Sovet hukumati ijtimoiy hayotdagi ko'plab sohalarni tubdan o'zgartirishga harakat qildi. 20-yillarning ikkinchi yarmidan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi milliy maorif sohasi rivojlanishini ham bo'g'ib qo'ydi. Hukumat idoralari tomonidan diniy maktablarni yopishga katta e'tibor berila boshlandi.

XX asrning 20-yillari o'rtalariga borib sovet hukumati-ning ta'limga, xususan, milliy maorifga qarshi siyosati yanada kuchayib ketdi. Mana shu davrlarda Turkistonda 2403 ta eski maktab mavjud bo'lgan. Turkiston MIQning 1924 yildagi №5 sonli "Maorif oyligi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston SSRdagi barcha eski usul maktablari 1925 yilning 18 yanvaridan boshlab qattiq nazorat ostiga olindi. Qarorda: "Eski usul maktablarining barchasini hisobga olish kerak. Ularning ta'minoti to'laligicha diniy vaqflar mulki hiso-biga o'tkazilib, asta-sekin davlat maktablari tizimiga o'tkazib borish kerak. Barcha eski usul maktablari o'qituvchilari xalq ta'limi bo'limlaridan ro'yxatdan o'tkazilib, faqat uning nazorati ostida ishlashlari majburiydir", - deya ta'kidlangandi. [3, 143].

1927 yil 22 avgustdagi Samarqandda O'zbekiston SSR Mao-rif xalq komissarligi hay'atining yig'ilishida Poroshin, Inoyatov, Qodirov, Moiseyenko, Pexovich, Kalistratov, Boykolar qat-nashgan. "YAgona mehnat maktabining birinchi Nizomi" loyihasi tasdiqlanadi. Nizomda xususiy maktablarning mavjud bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi ham belgilab qo'yiladi. Xususiy maktablarni ochishga hukumatning maxsus qarori mavjud bo'lgandagina ruxsat etilishi ta'kidlanadi.

Agar 1927 - 1928 yillarda O'zbekistonda 1576 ta yangi, bi-rinchi bosqich maktabi ishlab turgan bo'lsa, shu vaqtda respublika hududida 1305 ta eski, diniy makgab faoliyat yuritdi. 1927 yili "Za partiyu" jurnali orqali siyosiy doiralar eski usuldagi va jadid maktablariga qarshi kurash e'lon qiladi. Natijada ular sovet ma'murlari tomonidan asta-sekin ber-kitilib, 20-yillar oxiriga kelganda o'z

faoliyatini butunlay to'xtatishga majbur bo'ladi.

1927 yil 31 oktyabrda O'zbekiston SSR MIQ mahalliy byudjetlar bo'yicha komissiyasining okrug ijroiya qo'mitalari vakillari ishtirokida maxsus yig'ilishi bo'ladi. Majlisda mahalliy byudjet masalasi bilan bir qatorda eski maktablarning tugatilishi masalasi ham ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda eski usul maktablarini tugatish uchun davlat byudjetidan 260000 rubl ajratilgani, eng ko'p mablag', ya'ni 70000 rubl Andijon okrugiga ajratilgani qayd etilgan. Chunki okrugda diniy maktablar soni boshqa joylarga nisbatan ko'p edi. 1927 yil okrugda 39 madrasa, 400 maktab, 17 qorixona mavjud bo'lib, ularda 10148 nafar talaba tahsil olgan.

1927 yil O'zbekiston SSR MIQ III sessiyasida "Eski usul maktablarini tugatish to'g'risida"gi masala ko'tariladi. Mazkur sessiyada O'zbekiston SSR Maorif xalq komissari Mannon Ramziy (1931 yilda vazifasidan ozod etilgan) ma'ruza qiladi. U o'z ma'ruzasida eski usul maktablari va ularning faoliyati haqida to'xtalib, shunday deydi: "Sobiq Turkistonning oktyabr to'nta-rishigacha asosiy okruglarida - Farg'ona, Samarqand va Toshkentda 5833 diniy maktab bor edi. Agar bularga Buxoro va Xorazmni qo'shsak, unda hozirgi O'zbekiston hududida to'ntarishga qadar 6505 diniy maktab bo'lib, bu maktablarda o'quvchilar soni 104000 dan ortiqni tashkil etardi. Burjuaziya, xususiy mulkdorlar va amaldorlar, mehnatkashlar ommasi o'z farzandlarini eski usul maktablari, qorixona, madrasalarda o'qitishga majbur edi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng biz sovet maktablarini zudlik bilan tashkil qila boshlaganimizda va ularning ri-vojlangani sari eski usul maktablarining soni kamayib bor-di. Oktyabr to'ntarishigacha 6505 diniy maktab bo'lgan bo'lsa, 1927 yil ulardan 1305 maktab qoldi.

Demak, eski usul maktablarining asta-sekin kamayishi kuzatilmoqda. Bunday holat bizni qoniqtirmaydi, negaki, eski usul maktablarining soni oxirgi paytda ozaydi, vaholanki, ular saqpanib qolgan edi". [4, 133].

1928 yil 13 - 19 noyabrda O'zbekiston SSR MIQ Sovetlari-ning ikkinchi chaqiriq IV sessiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur sessiya "Eski usul maktab va

qorixonalarni tugatish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Qarorga O'zbekiston SSR MIQ raisi Y.Oxunboboyev va O'zbekiston SSR MIQ kotibi Ibrohimovlar imzo chekkanlar. Qarorda to'g'ridan-to'g'ri shunday deb yozilgan:

Butun O'zbekiston SSRda bo'lgan eski usul maktablari yopilsin va kelgusida shunday maktablarni tashkil qilishga yo'l berilmasin. Ushbu qaror erkak va qizlar maktablariga nisbatan bir xil kuchda hisoblansin. Eski usul maktablari shu qaror e'lon qilingandan keyin 10 kun muddat ichida yopilmagan taqdirda shu tipdagi maktab-lar ochilsa, bunday maktabni tashkil qiluvchi muallimlar, domlalar vatashkilotchilar jinoiy javobgarlikka tortilsin.

Mazkur qarorga ko'ra, eski maktablarni ochgan shaxslar O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 158-moddasiga binoan 500 rublgacha jarima yoki 2 yilgacha ozodlikdan mahrum etilgan yoki bir yilgacha majburiy mehnatga jalb qilish bilan jazolangan. Qaror chiqqan davrdan boshlab O'zbekistonda 1200 ta eski usul maktablari tugatilgan. Barcha mahalliy ijroiya qo'mitalari va maorif idoralari berkitilgan eski maktablarning o'quvchilarining sovet maktablariga o'tishlarini ta'minlash choralarini ko'rishlari lozimligi ko'rsatilgandi. Qarorga ko'ra, 1328 yil-dan e'tiboran barcha eski maktablarda o'qish to'xtatilib, bu maktablarning yopib qo'yilishi belgilangandi.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, eski usul maktablari XX asrning 20-yillarida ham faoliyat olib borganlar. O'z navbatida, sovet hukumati eski maktablar faoliyatiga qarshi doimiy ravishda kurash olib bordi. Sovet hukumati isloh qilingan maktablar faoliyati mavjud tuzum manfaatlariga zid ekanligini anglagan holda oradan bir yil vaqt o'tmasidanoq ularning dasturlariga birinchi bosqich yagona mehnat maktabi dasturini kiritdi. Aniqrog'i, 1924 yilda ular sovet maktablariga aylantirildi. Bu maktablarda esa diniy fanlarning o'qitilishi manqilindi. Yfngi usul maktablarining yopilishi va sovet maktablarining ochilishi mahalliy aholining turli qatlamlarida norozilik uyg'otdi.

1925 yil boshlarida amalga oshirilgan islohot orqali eski maktablarning faoliyat olib borishiga hukumat rozilik berdi. 1925 yil dekabr oyiga kelib sovet hukumati ularni zo'rlik bilan yopish taraddudiga tushdi. Shu oyda Eski shahar

ijroiya qo'mitasi tomonidan chiqarilgan qaror ham eski maktablar faoliyatini cheklashga qaratilgandi. Unga ko'ra, 1926 yildan eski maktablarga Maorif bo'limlarining roziligisiz o'quvchilarni to'plash taqiqpandi. Qarorni buzgan shaxslar Jinoyat kodeksiga binoan javobgarlikka tortildilar, lekin bu bilan eski maktablar faoliyati tamomila to'xtab qolgani yo'q, chunki ushbu maktablar mahalliy aholi orasida asrlar davomida ma'rifat maskani sifatida nom qozongan, aholi ma'naviy ehtiyojlariga to'la mos tushardi.

1927 yilga kelib esa eski maktablarga nisbatan kurash yanada keskinlashdi. Shu yili Kommunistik partiyaning bo'lib o'tgan yanvar va iyun Plenumlarida ularni to'la holatda tugatish, isloh qilinganlarini esa yangi sovet maktabini tashkil etish orqali yo'qotish choralari ko'rildi. O'zbekiston SSR MIQ tomonidan eski maktablarni tugatish uchun mablag' ajratildi. Eng ko'p mablag'lar Andijon okrugiga ajratilgan. Sababi, okrugda boshqa joylarga qaraganda eski maktablar soni ko'proq bo'lgan.

1928 yil noyabrda esa O'zbekiston SSR MIQ tomondan chiqarilgan qarorga ko'ra, milliy maktablar faoliyati tamomila to'xtatib qo'yildi. Qaror e'lon qilingandan so'ng mingdan ortiq maktablar zo'rlik bilan yopildi. Bu maktablarning tugatilishi o'zbek xalqi madaniyati va ma'naviyatining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qiliadigan bo'lsak , yuqorida tarixdan biz oqilona xulosa chiqarishimiz lozim. Ta'lim tizimini takomillashtirish — ularning bilimni oshirish, sifat darajasini ko'tarishdir. O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda “ Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz.” **Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. [5, 3]. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.**

Yurtimizda uzluksiz va uzviylik tamoyillariga tayangan ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatda ma'naviy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, davlatimizning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Jumladan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41-moddasida ta'lim sohasiga alohida to'xtalib o'tilgan: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.
2. Elboyeva, S. B. (2022). МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИК–ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 377-385.
3. Kuziyevich, E. U. (2024). GUZOR FORT IN THE PERIOD OF BUKHARA EMIRATE. *European Science Methodical Journal*, 2(5), 192-198.
4. Ergashev, U. K. (2024). SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN GUZOR PROVINCE. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 2(5), 157-162.
5. Yu.Ergashova, G.Imomova. Qashqadaryo ilm yulduzlari. –Qarshi: "Intellekt-naspriyot", 2023. – B.3.
6. Элбоева, Ш. Б. (2020). Изменения в культурной жизни Узбекистана и духовном наследии. *Вестник науки и образования*, (13-3 (91)), 26-28.
7. Kuziyevich, E. U. (2023). SETTLEMENTS ASSOCIATED WITH THE "BATOSH" SEED IN THE GUZOR STATION OF THE EMIRATE OF BUKHARA IN THE LATE 19TH–EARLY 20TH CENTURIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(7), 116-119.

8. Asadova, R. B. (2024). O 'ZBEKISTON VA HINDISTON MUNOSABATLARI: TA'LIM VA MADANIYAT SOHASIDAGI AMALIY HAMKORLIK. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 26-32.
9. АСАДОВА, Р. (2024). ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕТРОСПЕКТИВА ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ НАРОДАМИ УЗБЕКИСТАНА И ИНДИИ. *News of UzMU journal*, 1(1.2. 1), 7-10.
10. Асадова, Р. Б. (2021). ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И ИНДИИ ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 18, 43-47.
11. Асадова, Р. (2024). O 'zbekiston va Hindiston o 'rtasida savdo va ilmiy-texnik hamkorlik. *Общество и инновации*, 5(5), 227-231.
12. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.
13. Esanova, N. (2024). QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEXANIZMINING YARATILISHI. *Interpretation and researches*.
14. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN'S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 342-343.
15. Sherozovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). THE EMERGENCE OF THE GAS-SULFUR INDUSTRY IN UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT HISTORY (IN THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 217-220.
16. Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yu). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.

17. Mamatqulov, B. S. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA OQIBATLAR (XX-ASRNING 30-40 y.). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 33-39.
18. Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. *GOLDEN BRAIN*, 2(20), 64-69.
19. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 114-117.
20. Suyunovna, J. S. (2021). MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 186-194.